



## FOND BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTORLAR FAOLLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI

**Akramjon Karimov,**

*PhD, Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar kafedrasi dotsenti,*

*Toshkent moliya instituti, Toshkent, O'zbekiston.*

*Email: akram\_karimov@tfi.uz*

*ORCID: 0000-0001-9426-8777*

### ECONOMIC MECHANISMS OF PROVIDING INVESTOR ACTIVITY IN THE DEVELOPMENT OF THE FUND MARKET

**Akramjon Karimov,**

*PhD, Associate Professor of the Department of Corporate Finance and Securities,*

*Tashkent Institute of Finance, Tashkent, Uzbekistan.*

*Email: akram\_karimov@tfi.uz*

*ORCID: 0000-0001-9426-8777*

#### **JEL Classification: G1, G11**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada fond bozorini rivojlantirish, unga xorijiy va mahalliy investorlarni jalg qilish hamda ularning faolligini ta'minlash, xalqaro amaliyotni o'rgangan holda sohani takomillashtirishga doir ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar keltirilgan. Aksiya va obligatsiyalar bozori iqtisodiyoti rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi tajribalari o'rganilib, mamlakatimiz iqtisodiyotiga xos bo'lgan jihatlari asoslab berilgan. Shuningdek, kompaniyalarda investitsion loyihalarni qimmatli qog'ozlarni ommaviy joylashtirish jarayoni orqali amalga oshirishning moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilingan.

Xalqaro fond bozoridagi kompaniyalarning kapitallashuv darajasi va ularning joriy daromadlilik ko'rsatkichlari ko'rib chiqilgan bo'lib, AQSH, Xitoy va boshqa iqtisodiyoti rivojlangan davlatlardagi yirik korporatsiyalar rivojlanishida fond bozorining o'rni beqiyosligi hozirgi kunda namoyon bo'lmoqda. Shu sababdan, milliy iqtisodiyotni rivojlanishida xorij tajribalarini ilmiy jihatdan keng ko'lamda o'rganish hamda shu asosda fond bozorining milliy

tamoyillari va faoliyat mexanizimini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolada iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida fond bozoriga investorlar jalg etish bo'yicha, qimmatli qog'ozlar bozorining milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati undagi yuqori likvidlik instrumentlar bo'yicha tahlil va tavsiyalari o'rganilib chiqilgan.

Ilmiy tadqiqot davomida xorijiy va milliy fond bozorlaridagi moliyaviy instrumentlar turlari hamda ular bilan bog'liq bitimlar tahlil etildi. Xususan, ushbu yo'nalishda davlat qimmatli qog'ozlari va korporativ obligatsiyalar bilan bog'liq savdo natijalari mamlakatlar kesimida bayon etildi.

O'zbekistonda fond bozorini rivojlantirishda moliyaviy instrumentlarni miqdori va daromadlilik darajasi yuqori bo'lishi, investorlarni jalg etishda hosilaviy qimmatli qog'ozlarning o'rni tahlillar asosida ko'rib chiqilgan.

**Abstract.** This article presents a scientific proposal and practical recommendations for the development of the stock market, bringing foreign and local investors to it and ensuring their activity, improving the industry based on the study of international practice. The experiences of the



economical developed and developing countries of the practice of stock and bond markets are studied, and the aspects specific to the economy of our country are justified. Also, the indicators of financial efficiency of the implementation of projects in companies through the process of mass placement of securities were methodologically analyzed.

The level of capitalization of the companies in the international stock markets and their current profitability indicators have been examined, and the incomparable role of the stock market in the development of large corporations in the USA and China is currently being demonstrated. For this reason, in the development of the national economy, it is important to study foreign experiences scientifically and to form the national principles and working mechanism of the stock market on this basis.

In the article, the analysis and recommendations of scientists in the field of economics on attracting investors to the stock market, the importance of the stock market in the national economy, and high liquidity instruments are studied.

During the scientific research, types of financial instruments in foreign and national stock markets and transactions related to them were analyzed. In particular, in this direction, the results of trade related to state securities and corporate bonds were reported by country.

The amount of financial instruments and the high level of profitability in the development of the stock market in Uzbekistan, the role of derivative securities in attracting investors were considered based on the analysis.

**Kalit so‘zlar:** Fond bozori, aksiya, obligatsiya, bozor kapitallashuvi, qimmatli qog‘ozlar, IPO, SPO, kapital bozori, investor, xorijiy investitsiyalar, daromadi belgilangan

qimmatli qog‘ozlar bozori, moliyaviy instrument, moliyaviy aktiv.

**Keywords:** Stock market, share, bond, market capitalization, securities, IPO, SPO, capital market, investor, foreign investment, fixed income securities market, financial instrument, financial asset.

**Kirish.** Fond bozorida aksiyadorlik jamiyatlarining aksiya va obligatsiyalari bo‘yicha savdo jarayonlari amalga oshiriladi. Milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda kapital bozori strategik ahamiyatga ega hisoblanib, mahalliy va xorijiy investorlarni keng jalg qilish orqali kompaniyalar zaruriy moliyaviy resurslarga hamda bozor kapitallashuvini o‘sishiga erishadilar. Xususan, Jahon Birjalar Federatsiyasi a’zo bo‘lgan fond birjalarida 2022-yilda jami 1326ta qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha birlamchi ommaviy joylashtirish (IPO)lar o’tkazilgan bo‘lib, ushbu jarayonlar natijasida kompaniyalar umumiy 163,5 trln. AQSH dollari, jumladan, yangi aksiyalar chiqarish evaziga qariyib 81,8 trln. AQSH dollar[1] lik qiymatidagi moliyaviy resurslar jalg etilgan. Shuningdek, 2023-yilning iyul holatiga dunyo bo‘yicha kompaniyalarning bozor kapitallashuvi 112 trln. AQSH dollarini tashkil etgan[2]. Ushbu jihatlarni inobatga olganda, fond bozori milliy iqtisodiyotni rivojlantiruvchi “lokomativ” desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xalqaro toifadagi fond bozorlarida so‘nggi bir yil davomida kompaniyalar aksiyalari bahosi sezilarli darajada o‘zgargan. AQSHdagi Oracle Corporation – 64,75 foizga, Adobe Inc. – 52,49 foizga, NVIDIA Corporation – 246,73 foizga, Broadcom Inc. – 77,75 foizga, Meta Platforms Inc. – 81,05 foizga, Eli Lilly and Company – 80,50 foizga, Buyuk Britaniyada Ferguson plc – 37,09 foizga, Haleon plc – 37,50 foizga, nVent Electric plc – 69,78 foizga, Shvetsariyada MoonLake Immunotherapeutics – 527,66 foizga, Transocean Ltd. – 149,12 foizga, UBS Group AG – 74,52 foizga, Xitoyda MINISO

Group Holding Limited – 327,10 foizga, New Oriental Education & Technology Group Inc. – 103,56 foizga, Yaponiyada Mitsubishi UFJ Financial Group Inc. – 61,20 foizga, Sumitomo Mitsui Financial Group Inc. – 55,14 foiz[3] ga aksiyalari bahosi o'sganligini alohida e'tirof etish joizdir.

Fond bozorini rivojlanishida investorlarning faolligi ko'p omillarga bog'liqdir. Zero, bir tomondan kompaniyalar doimiy ravishda rivojlanishi, yangi loyihalarni amalga oshirishi, faoliyatini modernizatsiya qilishi uchun qo'shimcha moliyaviy resurslarga ehtiyoji yuqori bo'ladigan bo'lsa, ikkinchi tomondan investorlar ham yuqori daromad olish maqsadida kapital bozoriga o'z investitsiyalar kiritadi.

**Material va metod.** Iqtisodiy adabiyotlarda qayd etilganidek, "fond birja – tijorat tashkilot bo'lib, uning faoliyati qimmatli qog'ozlar bozorini tashkil etish va tartibga solishga hamda talab va taklif asosida birja aksiya va obligatsiyalarining narxlarini ushbu bozorda shakllantirishdan tashkil topadi"[5].

Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilganidek, fond bozorlari iqtisodiyotda bir qancha muhim vazifalarni bajaradi. Birinchidan, fond bozorlari investitsiya qilinadigan mablag'larni iqtisodiyotda bir sub'yektdan boshqasiga o'tkazishni osonlashtiradigan mexanizmlar yaratadi, ikkinchidan investitsion loyihalar uchun kompaniyalar, hukumatlar, mahalliy hokimiyatlarning moliyaviy resursidan ko'ra kattaroq kapital jamlanishini amalgalashiradilar[6].

Xorijlik iqtisodiyot sohasidagi olimlardan biri Jeff Madura o'z tadqiqot ishlarida moliya bozorining turli instrumentlari asosida fond bozorini rivojlantirishga e'tibor qaratgan bo'lib[7], tadqiqot natijalaridan iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda fond bozori aktivlari soni tobora oshib borayotganligiga guvoh bo'lish mumkin.

Hozirgi kunda fond bozori va kapital bozori tushunchasi o'zaro bog'liqlikda qo'llaniladi. Xususan, iqtisodchilar fond bozorida aksiyalarning narxi va moliyaviy hisobotlar o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha empirik tadqiqotlarni ko'rib chiqib, aksiyalar bozorlarini o'rganishga bo'lgan talabning asosiy manbalari fundamental tahlil va baholash, bozor samaradorligi testlari, shartnomalar va siyosiy jarayonda buxgalteriya raqamlarining roli hisoblanishini ba'yon etganalar[8].

Fond bozorida moliyaviy instrumentlarning o'zgaruvchanlik darajasini milliy iqtisodiyotga ta'sirini M.King, E.Sentana, S.Wadhwani[9]lar tahlil etib, soha yuzasidan o'zlarining ilmiy taklif va tavsiyalarini ishlab chiqqanlar.

F.Mishkin va S.Yakinslar tadqiqot ishlarida keltirilgan xulosaga ko'ra jahon iqtisodiyotida fond bozorining ahamiyati va roli borgan sari oshib borayotgan bir vaqtda moliyaviy instrumentlar hajmi ham oshib borayotganligiga guvoh bo'lish mumkin. Shuningdek, fond bozori aktivlari qo'llanish xususiyatlari bilan birga, ularni muomalasini tartibga solish masalalari ham keng tadqiq va tahlil qilingan[10].

B.Rubtsov tomonidan zamonaviy fond bozorlari tadqiq qilingan bo'lib, rivojlangan va rivojlanayotgan fond bozorlarining rivojlanish xususiyatlari, ularda qo'llanilayotgan qimmatli qog'ozlar turlari atroflicha o'rganilganligini qayd etib o'tish mumkin[11]. Zamonaviy fond bozorlarini rivojlanantirishda moliyaviy texnologiyalardan keng foydalanish va savdo jarayonlariga yuqori samadorlikga ega sun'iy intellektini biriktirishini alohida qayd etsak bo'ladi.

Tijorat banklari, birjalar, pay fondlari, investitsion fondlar va boshqalar fond bozorida asosiy vositachilar hisoblanadilar. Ularning barchasi alohida operatsiyalarni bajarish orqali kapital egasi va kapitalga

ehtiyojmand shaxslarning o'zaro birlashishiga ko'maklashadi[12].

Aksiyalar bozori va bank tizmining iqtisodiy o'sishga R.Levine, S.Zervos o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida ko'rib chiqib, fond birja hajmi o'zgaruvchanligi xalqaro integratsiya o'sish bilan mustahkam bog'liqligini qayd etib o'tganlar[13].

Fond bozorida moliyaviy instrumentlarning qay darajada likvidliligi investorlarni jalb etishda eng muhim omillardan biri hisoblanib, qimmatli qog'ozlar bozoriga ko'p miqdorda sarmoya kiritishga va davlatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga asos bo'ladi[14].

A.Demirguc-Kunt, R Levinelar o'zlarining ilmiy ishlarida aksiyalar bozoriga korporativ moliyalashtirsh tizimining hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'sirini omillar asosida yoritib bergenlar[15].

**Ilmiy muammoning qo'yilishi.** Mamlakatimiz fond bozorida xususiy investorlarni faolligi past darajada qolmoqda. Bunga iqtisodiyotda davlat ishtirokinning nihoyatda yuqoriligi, loyihalarni moliyalashtirishda moliya bozori orqali mustaqil moliyaviy resurslarga jalb qilishdan manfaatdorlikning yuqori emasligi, ayrim kompaniyalarning yangi loyihalarida samaradorlikni yetarlicha emasligi kabilar bevosita sabab bo'lmoqda. Shundan kelib chiqqan holda mazkur muammolarni hal qilish bo'yicha alohida tadqiqot ishlari zarur hisoblanadi.

**Natijalar.** Fond bozorida ulushli (aksiya), qarz (obligatsiyalar) va boshqa turdag'i qimmatli qog'ozlarining savdolari amalga oshiriladi. Ushbu savdolar tashkilotchisi hamda nazoratchisi sifatida fond birjalari namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining qonunchilikiga ko'ra "fond birjasi – ommaviy va oshkora birja savdolarini oldindan belgilangan joyda va belgilangan vaqtida o'rnatilgan qoidalar

asosida tashkil etish hamda o'tkazish orqali faqat qimmatli qog'ozlar savdosi uchun sharoitlar yaratib beruvchi yuridik shaxs"[16] hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotdan ma'lumki, fond birjalari savdolari o'ziga yarasha moliyaviy texnoligiyalarga asoslangan, interfaol plotformalar orqali amalga oshiriladi. Milliy iqtisodiyotda fond bozorlarining funksiya, vazifa va tamoyillari borki, ular asosida butun bir moliyaviy barqarorlilik ta'minlanadi. Fond birjasining asosiy vazifalari quyidagilar[17]:

- birja savdosi qoidalarini belgilash, o'z internet saytida joylashtirish;

- birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar savdosini tashkil etish;

- qimmatli qog'ozlarga bo'lgan talab va taklifning nisbati asosida ularning narxini chiqarish;

- muntazam ravishda o'z internet-saytida va ommaviy axborot vositalarida qimmatli qog'ozlarning kotirovka narxlarini e'lon qilish, birja a'zolarini birja savdosi yakunlari to'g'risida xabardor qilish;

- birja o'z a'zolari va ularning qimmatli qog'ozlar bilan oldi-sotdi jarayonlarini bevosita amalga oshiradigan treyderlari uchun malaka talablarini ishlab chiqish va tasdiqlash, ularning huquq va majburiyatlarini belgilash;

- amaldagi qonunchilik, fond birja ustavi va birjaning ichki me'yoriy hujjatlarida belgilangan tartibda yangi a'zolar qabul qilish va a'zolikdan chiqarish;

- birja a'zolarining akkreditatsiyasini amalga oshirish;

- qimmatli qog'ozlar bozori qatnashchilarining talab va ehtiyojlarini hisobga olgan holda amaldagi qonunchilikka muvofiq birja bitimlari amalga oshiriladigan maxsus seksiyalar tashkil etish;

- qimmatli qog'ozlarni birja listingiga kiritish va delisting qilish tadbirlarini amalga oshirish hamda qimmatli qog'ozlarning

kotirovka qilinish tartib va qoidalarini ishlab chiqish;

- birja faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan narx belgilash, hakamlik, listing, nazorat va boshqa birja komissiyalarini tuzish;

- agar birja bitimlarining narxi kun davomida birja tomonidan belgilangan qiymatdan ham ortiqroq o‘zgarib ketsa, birja savdosini to‘xtatish;

- birja tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun to‘lanadigan haq miqdorini belgilash;

- birja savdosi qoidalarini buzganlik uchun jarimalar hamda penyalar belgilash va undirish;

- birja savdolarini amalga oshirish uchun foydalaniadigan hujjatlarning standart shakllarini ishlab chiqish;


- axborot-tahliliy ishlarni amalga oshirish uchun qimmatli qog‘ozlar

emissiyalarining hajmi va turi hamda ularning birjada va fond bozorida aylanish darajasini taqqoslash yo‘li orqali o‘rganish;

- fond birja ustavida belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun amaldagi qonunchilik asosida tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;

- qonunchilik asosida birja faoliyatini samarali ta’minalash bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa vazifalarni amalga oshirish.

Yuqorida vazifalarni yuqori darajada samarali va operativ bajarilishi milliy fond bozorini joriy faoliyatiga hamda yanada rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Fond birjalari faoliyat sohasi turli davlatlarda turlicha boshqaruva organlari tomonidan nazorat qilinadi. Quyidagi rasmida fond birja tamoyillarini ko‘rib chiqishimiz mumkin(1-rasm).




**1-rasm. Fond birja tamoyillari[17]**

1-rasm ma’lumotlarida shuni qayd etish joizki, iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda fond birjalari savdolarni oshkora va ommaviy tarzda o‘tkazishda hamda investorlarni moliyaviy resurslarini keng jalb etish zamonaviy moliyaviy texnologiyalardan samarali foydalilmoxda. Shuningdek, mahalliy va xorijiy investorlarga moliyaviy instrumentlar sotib olishda narxlarni erkin shakllantirish va barcha a’zolarining birja savdolarida ishtirok etishi uchun sharoitlarning

tengligi bo‘yicha belgilangan chora tadbirlarni amalga oshirilmoqda.

Fond birjalarida investorlarni keng jalb etishda moliyaviy aktivlarning daromadliligi va jozibadorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, xar qanday investor o‘z portfelini rentabelligi va likvidlilagini ta’minalashga xarakat qiladi. Quyida fond bozorida ulushli va qarz qimmatli qog‘ozlar bozorining 2013-2022-yillar davomidagi ko‘rsatkichlari berib o‘tilgan (2-rasm).




**2-rasm. Dunyo YaIM va fond bozori ko'rsatkichlari[18]**

2-rasm ma'lumotlarida dunyo yalpi ichki mahsuloti va fond bozoridagi moliyaviy instrumentlarning qiymat ko'rsatkichlari tahlil etilgan. Xususan, aksiyalar bozori kapitallashuvi 2013-yilda 65,04 trln. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 151,54 foizga oshganligini, global daromadli belgilangan qimmatli qog'ozlar bozori esa 87,79 trln. AQSH dollaridan 129,81 trln. AQSH dollariga oshganligini kuzatsak bo'ladi. Shuningdek, fond bozoridagi qarz va ulushli qimmatli qog'ozlarning yalpi ichki mahsulotga

nisbati 227,09 foiz bo'lganligi sohaning yirik imkoniyatlari hamda salohiyati mavjudligi bilan izohlasak bo'ladi.

Daromadi belgilangan qimmatli qog'ozlar bozori - bu davlat obligatsiyalari, korporativ obligatsiyalar va g'azna veksellari kabi doimiy daromadli qimmatli qog'ozlar sotiladigan bozor. Ushbu bozorda investorlar oylik, choraklik, yarim yillik yoki har yili muntazam daromad oladilar va asosiy qarzn to'lash muddati tugashi bilan qilingan investitsiyalari qaytariladi.



**3-rasm. Davlatlar kesimida qarz qimmatli qog'ozlari bozori, trln. AQSH dollarari [19]**


3-rasm ma'lumotlarida obligatsiyalar bozorining davlat kesimida 2022-yil natijalari bo'yicha ko'rsatkichlari tahlil etilgan. Xususan, qarz qimmatli qog'ozlar bozorida savdolar natijalariga ko'ra jami 133 trln. AQSH dollari, jumladan, AQSHda 51,3 trln. AQSH dollari yoki 39 foiz, Xitoyda 20,9 trln. AQSH dollarini yoki 16 foiz, Yaponiya 11 trln. AQSH dollarini yoki 8 foizni

tashkil etgan. Yevropa mamlakatlaridan obligatsiyalar savdolari bo'yicha Fransiyada yuqori natijalar kuzatilgan.

Fond birjalari orasida eng yirik bozor kapitallashuviga ega bo'lganlari AQSHdagi NYSE va NASDAQ birjalari hisoblanib, ulardagagi aksiyalarning yillik o'sish tendensiylarini quyida ko'rib chiqishimiz mumkin (4-rasm).



Oracle Corporation (NYSE)



NVIDIA Corporation (NYSE)



Adobe Inc. (NASDAQ)




Meta Platforms, Inc. (NASDAQ)

#### 4-rasm. NYSE va NASDAQ fond birjalarida kompaniya aksiyalari kotirovksi [20]

4-rasm ma'lumotlarida 2013-2022 yillar mobaynida NYSE va NASDAQ fond birjalaridagi listingdan o'tgan yirik texnologik kompaniyalardan Oracle Corporation, NVIDIA Corporation, Adobe Inc., Meta Platforms Inc.larning aksiyalari bozor kapitallashuvi bo'yicha ma'lumot berib o'tilgan. Fond birjalarida yuqoridagi barcha

hollarda kompaniya aksiyalar bozor bahosi 2022-yilgacha yuqori darajada o'sganligini kuzatishimiz mumkin.

Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga keng jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususiy investitsiyalar bo'yicha AQSH va Yaponiya davlatlari yuqori o'rinnlarda turadi (5-rasm).



**5-rasm. 1998-2020 yillarda xususiy investorlarning (aholi) fond bozoridagi ishtiroki, foizlarda[21]**

5-rasm ma'lumotlarida 1998-2020 yillar mobaynida AQSH, Yaponiya va Rossiyada aholining fond bozoridagi ishtiroki umumiyligiga nisbatan ifoda etilgan. Ushbu ma'lumotlardan qayd etish joizki, AQSHda qimmatli qog'ozlar bozori xususiy investorlarning asosiy daromad manbai hisoblanadi.

AQSH qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishida investorlar uchun fond birjalarini taklif etayotgan moliyaviy instrumentlar jozibadorligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Amerika fond bozorida depozitar tilxatlarning muomalaga kiritilishi birja savdolar hajmini oshishiga va investitsiyalarni kirib kelishiga sharoit yaratdi.

#### 1-jadval

**Amerika va global depozitar tilxatlarni muomalaga kiritish bosqichlari[22]**

Bosqichlar	Bosqichlarning mohiyati
Birinchi bosqich	Emitentning o'z mamlakati fond bozoriga aksiyalar chiqarishi
Ikkinchi bosqich	Amerika fond bozorida xalqaro darajadagi vositachi orqali emitent aksiyalarini deponentlash
Uchinchi bosqich	Deponentlangan aksiyalarni xalqaro darajadagi vositachi orqali AQSHda ro'yxatdan o'tkazish
To'rtinchi bosqich	Xalqaro darajadagi vositachi orqali deponentlangan aksiyalarga nisbatan amerika depozitar aksiyalarini emissiya qilish. Bunday aksiyalar amerika fond bozorlarida mustaqil muomalada bo'lmaydi.
Beshinchi bosqich	Ma'lum miqdordagi amerika depozitar aksiyalari hisobiga amerika depozitar tilxatlari (ADR)-ni chiqarish
Oltinchi bosqich	AQSH fond bozorida ADRlarni muomalaga kiritish
Yettinchi bosqich	Global depozitar tilxatlari (GDR) sifatida AQSHda ro'yxatdan o'tkazish. Bunday qimmatli qog'ozlar ADR-1, ADR-4 va ta'minlanmagan amerika depozitar tilxatlaridan yuzaga keladi. AQSHdan tashqari jahoning boshqa mamlakatlari fond bozorlarida muomalada bo'ladi

Moliyaviy instrumentlarni fond bozorida miqdori va daromadlilik darajasi yuqori bo'lishi investorlar oqimini ko'payishiga va milliy iqtisodiyotni rivojlanishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasida fond bozori o'zining rivojlanish tarixi va davrlariga ega hisoblanadi. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorlarida davlat va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning qimmatli qog'ozlar emissiya qilish tartibi turli meyo'riy-huquqiy

xujjalalar asosida tartibga solinadi va quyidagicha ko‘rinishga ega (2-jadval).

### 2-jadval

#### O‘zbekiston fond bozorida qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish imkoniyatlari[23]

No	Qimmatli qog‘ozlar		O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya Vazirligi	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki	DK	AJ	MChJ	XK
1	Davlat qimmatli qog‘ozlari		+	+	—	—	—	—
2	Aksiya		—	—	—	+	—	—
3	Obligatsiya	korporativ	—	—	—	+	+	—
		xalqaro	+	—	+	+	+	—
		infratuzilma	+	—	+	+	+	—
4	Veksel		—	+	—	+	—	—
5	Depozitar tilxatlar		—	—	—	+	—	—
6	Depozit sertifikati		—	—	—	+	—	—
7	Opsion		—	—	—	+	—	—
8	Varrant		—	—	—	+	—	—
9	Fyuchers		—	—	—	—	+	—

Izoh: + belgisi mavjud, — belgisi mavjud emas.

O‘zbekiston fond bozori o‘zining ko‘lami va moliyaviy instrumentlari soni bilan yildan yilga ijobiy tomonga o‘zgarib bormoqda. Xususan, “Toshkent” respublika

fond birjasida 2021 va 2022 yillar kesimida qimmatli qog‘ozlar bilan bo‘lgan operatsiyalarni kuzatar ekanmiz, ijobiy o‘zgarishni qayd etishimiz mumkin (3-jadval).

### 3-jadval

#### “Toshkent” RFB bitimlar soni va hajmi[24]

Ko‘rsatkich	Bitimlar soni, dona			Bitimlar hajmi, mlrd. so‘m		
	2021 yil	2022 yil	Farqi	2021 yil	2022 yil	Farqi
Yanvar	3014	7599	4585	17,3	3 036,19	3018,89
Fevral	4354	7018	2664	40,58	95,12	54,54
Mart	4207	5804	1597	68,83	24,29	-44,54
Aprel	5695	7430	1735	74,72	95,12	20,4
May	8652	5990	-2662	612,4	28,16	-584,24
Iyun	6867	7609	742	73,52	68,22	-5,3
Iyul	4535	6099	1564	67,45	87,76	20,31
Avgust	5328	6401	1073	20,65	17,73	-2,92
Sentyabr	4928	4786	-142	12,57	42,92	30,35
Oktyabr	6723	4643	-2080	18,25	25,53	7,28
Noyabr	9342	7300	-2042	145,18	231,89	86,71
Dekabr	7843	10044	2201	109,05	1 067,31	958,26
Jami	<b>71 488</b>	<b>80 723</b>	<b>9235</b>	<b>1260,5</b>	<b>4 820,24</b>	<b>3 559,74</b>

3-jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, 2021 yilda jami bitimlar soni 71 488 tani tashkil etib, eng katta ko‘rsatkich

noyabr oyida kuzatilgan, shuningdek, bitimlar hajmi 1,26 trln. so‘mni tashkil etgan. 2022

yilda bitimlar hajmi 3,8 martaga oshgan bo‘lib, eng yirik bitim yanvar oyiga to‘g‘ri kelgan.

**Munozara.** Hozirgi vaqtga kelib fond bozorini rivojlantirishda investorlar faolligini ta’minalashning iqtisodiy mexanizmlari, ularning samaradorligini oshirish masalasi milliy va shuningdek, xalqaro darajada tadqiqotchilar va iqtisodchilarning e’tiboridagi masalalardan biridir. Xorijiy va mahalliy investorlarning Covid-19 pandemiyasidan so‘ng fond bozoridagi ishtiroki nisbatan pastligi bunga ma’lum darajada sabab bo‘lmoqda (4-rasm). Moliyaviy instrumentlarning milliy fond bozorida soni va daromadliligi pastliligi, o’tkazilayotgan aksiyalarni birlamchi va ikkilamchi ommaviy joylashtirishlarning samaradorligini oshirish, to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalni keng jalb qilish kabi masalalar bu sohada olib borilishi lozim bo‘lgan ilmiy tadqiqotlar dolzarbligini ifodalaydi.

O‘zbekiston Respublikasida fond bozorini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, unga xorijiy va mahalliy investorlarni keng jalb etish, moliyaviy instrumentlar soni va daromadliligini oshirish, aksiyadorlik jamiyatlarida minoritar aksiyadorlarni qo‘llab quvvatlash, aksiya va obligatsiyalar savdo infratuzilmasini yanda takomillashtirish bo‘yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko‘paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh

dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish maqsadida: xususiy lashtirish dasturi doirasida 1 mingga yaqin korxonani hamda eng yirik 10 ta kompaniya va tijorat banklarining aksiyalarini aholi uchun ochiq hamda shaffof savdoga chiqarish (IPO)”[4] kabi vazifalar belgilab olingen bo‘lib, ularning ijrosini samarali ta’minalash muhim ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa.** Fond bozorini rivojlantirishda investorlar faolligini ta’minalashning iqtisodiy mexanizmlari samaradorligini oshirishga qaratilgan quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqildi:

- fond birjalariga investorlarni keng jalb etishda moliyaviy instrumentlar miqdori va ularning jozibadorligini ikki tomonlama listing tizimini joriy etish orqali ta’minalash;

- O‘zbekiston Respublikasi rezidentlariga xalqaro fond bozorlaridan aksiyalar va obligatsiyalar sotib olish bo‘yicha ishonchli investitsion vositachilar ro‘yxatini shakllantirish va ushbu yo‘nalishdagi normotiv-huquqiy xujjalarni yanada takomillashtirish;

- O‘zbekiston fond bozorida xosilaviy qimmatli qog‘ozlarni savdosini keng yo‘lga qo‘yish va institutsional investorlarni jalb etish;

- fond birjalarini faoliyatini samarali va operativ faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadida sohaga moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Jahon Birjalar Federatsiyasi rasmiy websayti ma’lumotlari: <https://www.world-exchanges.org/>
2. Xalqaro statistika ma’lumotlar bazasi: <https://www.statista.com/statistics/274490/global-value-of-share-holdings-since-2000/>
3. Fond bozorlarini tahlil etuvchi xalqaro ma’lumotlar bazasi: <https://finviz.com/map.ashx?t=geo&st=w52>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga



oid davlat dasturi to‘g‘risida” Farmoni, 28.02.2023 yildagi PF-27-son, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 02.03.2023-y., 06/23/27/0121-son

5. S.Elmirzayev, N.Shavkatov, N.Sherqo‘ziyeva, A.Karimov, D.Abduraximova, S.Omonov Moliya bozori va moliyaviy texnologiyalar: O‘quv qo‘llanma – T.: «DIADEMA NUR SERVIS» OOO. – 2023. – T. 214 b.

6. Foley, B.J. (1991). The Role and Function of Capital Markets. In: Capital Markets. Palgrave, London. [https://doi.org/10.1007/978-1-349-21426-6\\_2](https://doi.org/10.1007/978-1-349-21426-6_2)

7. J.Madura. Financial Markets and Institutions. 12th Edition. USA: Cengage Learning, 2018. – 784 p.

8. Kothari S. P. Capital markets research in accounting //Journal of accounting and economics. – 2001. – T. 31. – №. 1-3. – C. 105-231.

9. King, M., Sentana, E., & Wadhwani, S. (1990). Volatility and Links Between National Stock Markets. doi:10.3386/w3357

10. F.Mishkin, S.Eakins. Financial Markets and Institutions. 9th Edition. USA: Pearson, 2017. - 704 p.

11. Б.Рубцов. Современные фондовые рынки. — М.: Алпина Бизнес Букс, 2007. – 926 с.

12. S.Elmirzayev, F.Muxamedov, D.Abdikarimova, A.Karimov Moliya bozori va birja ishi: Darslik–T.:© OOO«DIADEMA NUR SERVIS»520 b.

13. Levine R., Zervos S. Stock markets, banks, and economic growth //American economic review. – 1998. – C. 537-558.

14. Levine R., Zervos S. Stock markets, banks, and economic growth //American economic review. – 1998. – C. 537-558.

15. Demirgüt-Kunt A., Levine R. Stock markets, corporate finance, and economic growth: an overview //The World Bank Economic Review. – 1996. – T. 10. – №. 2. – C. 223-239.

16. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-387-son “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonuni, 03.06.2015 yildagi (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/836/0232-son)

17. S.Elmirzayev, N.Shavkatov, N.Sherqo‘ziyeva, A.Karimov, D.Abduraximova, S.Omonov Moliya bozori va moliyaviy texnologiyalar: Darslik – T.: «DIADEMA NUR SERVIS» OOO. – 2023. – T. 412 b.

18. Manbalar asosida muallif ishlanmasi:  
<https://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.MKTP.CD> ;  
<https://www.statista.com/statistics/274490/global-value-of-share-holdings-since-2000/>;

19. <https://advisor.visualcapitalist.com/the-largest-bond-markets-in-the-world/#:~:text=In%202022%2C%20the%20global%20bond,major%20economies%20and%20emerging%20markets>

20. <https://advisor.visualcapitalist.com/the-largest-bond-markets-in-the-world/#:~:text=In%202022%2C%20the%20global%20bond,major%20economies%20and%20emerging%20markets>

21. Karimov A.I. THE EXPERIENCE OF INVOLVING THE POPULATION'S FREE MONEY IN THE DEVELOPMENT OF THE SECURITIES MARKET //International Finance and Accounting. – 2020. – T. 2020. – №. 6. – C. 18.

22. Alimardonov E. va boshq. Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida moliya bozori barqarorligini ta’minlash: nazariy-konseptual va amaliy jihatlar. Monografiya. T.: Akademnashr, 2012. B. 132.



23. Karimov A.I. Aholining bo'sh pul mablag'larini jalb qilish orqali qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish: Monografiya. - T.: «Ilqtisod-Moliya», 2021. – 136 b.
24. Muallif tomonidan “Toshkent” RFB rasmiy ma'lumotlari asosida tayyorlandi.  
<https://uzse.uz/>